



## THE INFLUENCE OF THE SOCIO-CULTURAL ENVIRONMENT IN TURKESTAN ON THE WORLDVIEW OF ABDURAHMON TASHKANDI

**Husan Suvonqulov**

*Associate Professor, Department of Social Sciences*

*Gulistan State University*

*E-mail: [xusansuvankulov@gmail.com](mailto:xusansuvankulov@gmail.com)*

*Gulistan, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Abdurahman Toshkandi, Jadidism, enlightenment, Turkestan, socio-cultural environment, Al-Isloh journal, national awakening, reformism, ethical views, socio-philosophical thought, spirituality, Jadid press.

**Received:** 08.08.26

**Accepted:** 09.08.26

**Published:** 10.08.26

**Abstract:** This article analyzes the influence of the socio-cultural and educational environment of Turkestan on the worldview and creative activity of Abdurahman Toshkandi. The study examines the Jadid movement, enlightenment ideas, the activities of the “Al-Isloh” journal, and the formation of reformist views in the social life of Turkestan. Furthermore, the article scientifically analyzes the reflection of ideas related to enlightenment, moral perfection, national awakening, and social development in the works of Abdurahman Toshkandi.

## TURKISTONDAGI IJTIMOYIY-MADANIY MUHITNING ABDURAHMON TOSHKANDIY DUNYOQARASHIGA TA’SIRI

**Husan Suvonqulov**

*GulDU “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti*

*G-mail: [xusansuvankulov@gmail.com](mailto:xusansuvankulov@gmail.com)*

*Guliston, O‘zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** Abdurahmon Toshkandi, jadidchilik, ma’rifatparvarlik, Turkiston, ijtimoiy-madaniy muhit, Al-Isloh jurnali, milliy uyg‘onish, islohotchilik, axloqiy qarashlar, ijtimoiy-falsafiy tafakkur, ma’naviyat, jadid matbuoti.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Turkistondagi ijtimoiy-madaniy va ma’rifiy muhitning Abdurahmon Toshkandi dunyoqarashi hamda ijodiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotda jadidchilik harakati, ma’rifatparvarlik g‘oyalari, “Al-Isloh” jurnalining faoliyati hamda Turkiston ijtimoiy hayotidagi islohotchilik

qarashlarining shakllanish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, Abdurahmon Toshkandiy ijodida ilm-ma'rifat, axloqiy kamolot, milliy uyg'onish va jamiyat taraqqiyoti masalalarining aks etishi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

## ВЛИЯНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-КУЛЬТУРНОЙ СРЕДЫ ТУРКЕСТАНА НА МИРОВОЗЗРЕНИЕ АБДУРАХМАНА ТАШКАНДИЙ

**Хусан Сувонкулов**

Доцент кафедры «Социальные науки»

Гулистанского государственного университета

E-mail: [xusansuvankulov@gmail.com](mailto:xusansuvankulov@gmail.com)

Гулистан, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Абдурахман Тошканди, джадидизм, просветительство, Туркестан, социально-культурная среда, журнал «Ал-Ислож», национальное пробуждение, реформаторство, нравственные взгляды, социально-философское мышление, духовность, джадидская печать.

**Аннотация:** В данной статье анализируется влияние социально-культурной и просветительской среды Туркестана на мировоззрение и творчество Абдурахмана Тошканди. В исследовании рассматриваются джадидское движение, идеи просветительства, деятельность журнала «Ал-Ислож», а также процессы формирования реформаторских взглядов в общественной жизни Туркестана. Кроме того, научно проанализировано отражение в творчестве Абдурахмана Тошканди идей просвещения, нравственного совершенствования, национального пробуждения и общественного развития.

**Kirish.** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati xalqning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va madaniy hayotida muhim o'rin egalladi. Ushbu davrda ma'rifatparvar ziyolilar jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ilm-fan, ta'lim-tarbiya, milliy uyg'onish va ijtimoiy islohot g'oyalarini ilgari surdilar. Turkiston jadidchiligi nafaqat yangi usul maktablari va matbuot rivojiga, balki xalqning dunyoqarashi hamda ijtimoiy-falsafiy tafakkurining shakllanishiga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Ana shunday ma'rifatparvar mutafakkirlardan biri Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy bo'lib, u o'zining ilmiy-ma'rifiy faoliyati, publitsistik qarashlari hamda ijtimoiy-falsafiy g'oyalari bilan Turkiston ma'naviy hayotida alohida o'rin tutadi. Mutafakkirning dunyoqarashi

shakllanishida Turkistondagi ijtimoiy-madaniy muhit, jadidchilik harakati, islohotchilik g'oyalari hamda "Al-Isloh" jurnalining faoliyati muhim ahamiyat kasb etgan .

Abdurahmon Toshkandiy asarlarida ilm-ma'rifat, axloqiy kamolot, milliy taraqqiyot, jamiyatni isloh qilish hamda ma'naviy uyg'onish masalalari markaziy o'rin egallaydi. U xalq taraqqiyotini ta'lim, ma'naviyat va ijtimoiy ongning rivojlanishi bilan bog'liq holda talqin etadi. Shu jihatdan mutafakkir merosini o'rganish bugungi kunda ham ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Turkistondagi jadidchilik harakati, ma'rifatparvarlik g'oyalari va ijtimoiy-madaniy muhit masalalari ko'plab mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, jadidlarning milliy uyg'onish, ta'lim islohoti, matbuot, ma'naviyat va jamiyat taraqqiyotiga oid qarashlari I.Mo'minov[1], O.Karimov[2], A.Asatulloev[3], M.Xudoyqulov[4] kabi olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan . Ushbu tadqiqotlarda Turkiston ijtimoiy hayotida jadidlarning tutgan o'rni, ma'rifiy faoliyati hamda islohotchilik g'oyalari tahlil qilingan. Shuningdek, Abdurahmon Toshkandiy hayoti va ijodiga oid tadqiqotlarda uning ma'rifatparvarlik faoliyati, axloqiy qarashlari, "Al-Isloh" jurnalidagi faoliyati hamda Turkiston ma'naviy hayotiga qo'shgan hissasi yoritilgan . Biroq mavjud adabiyotlarda mutafakkir dunyoqarashining shakllanishida Turkistondagi ijtimoiy-madaniy muhitning ta'siri kompleks tarzda yetarlicha tadqiq etilmagan.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tarixiylik, xolislik va tizimli yondashuv tamoyillariga asoslanildi. Tadqiqot davomida tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik, mantiqiy tahlil, kontent-tahlil va interpretatsion metodlardan foydalanildi. Shuningdek, Abdurahmon Toshkandiy asarlari hamda "Al-Isloh" jurnalidagi maqolalar asosida mutafakkirning ijtimoiy-falsafiy qarashlari, ma'rifatparvarlik g'oyalari va islohotchilik faoliyati ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

**Natijalar va muhokama.** Ma'rifatparvar olim Is'hoqxon Ibrat Turkiston ma'rifatparvarlari orasida o'ziga hos mavqega ega bo'lgan kishidir. Shoir Ibrohim Davron[5] Ibrat haqida shunday yozadi: "Is'hoqxon To'ra ulumi diniya va faniya va adabiyada ustozi komillig'i birla butun Farg'ona va boshqa jihat Osiyoyi Vustoda rad etulmas darajada bir mavqei mumtozi tutmushdir. Is'hoqxon To'ra ulumi diniyada mudarrisdir, fununi dunyaviyda, biloshubha, arxitektor, texnik va mexanik va fiziqiya ilmida tilfonist, tilig'rofigist va yana ximik desak yana ham ozdur, zero bu ilmlarni bilur. Is'hoqxon To'ra olim va fozil bir zoti oliy bo'lib, bu turfa fazoili insoniyatga molik... Ba'zi ixtiroti ham bordur"[6].

Shu sabab, Is'hoqxon Ibratning "usuli jadid" va "usuli qadim" maktablariga atalgan bir qator maqolalari "Turkiston viloyatining gazetisi"da nashr etildi. Ibrat 1907-yili o'z xonadonida "usuli savtiya" uslubiga tayangan maktab ochib, unda 30 nafar qishloq bolalariga ta'lim beradi.

Ibrat pedagoglik bilan kifoyalanib qolmasdan, noshirlik faoliyatiga ham e'tibor qaratdi. 1913-yili "Al-Tijor al-Namangan" nomli gazetasini "Matbaai Is'hoqiya" qoshida chop qilishga harakat qilib, buning uchun hukumatdan ijozat so'rab ariza berganligi haqida "Vaqt" gazetasida ma'lumotlar mavjud: "Namangan mo'tabarindin Is'hoq qozi janoblari "Al-Tijor al-Namangan" nomida bir gazeta chiqararg'a istab ariza berdi"[7]. Ushbu inson 1908-yilda Namanganda bir matbaaning faoliyatini yo'lg'a qo'ygan edilar. Bu-yil "Kutubxonai Is'hoqiya" nomida kutubxona ochib, o'zbek, turk, tatar tillarida bo'lg'an adabiyot kitoblari oldirdi. Hozirda gazeta chiqarmoq haddindadir. Chin ko'ngildan rivoj tilaymiz. Baxtga qarshi Is'hoqxon Ibrat gazeta chop qilishga erisha olmadi, biroq jadidlar orqali nashr etilayotgan "Sadoyi Farg'ona", "Taraqqiy", "Tujjor" gazetalarida "Manzuma Ibratdin", "Gazetdur jahon ahliga bir lison", "Tabrik Namangondin" kabi ijodlaridan namunalarida gazeta mutolaa qilmaganlarni uxlaganlar yohud o'lganlar bilan birdek hisoblaydi, gazetani dunyo xalqlari uchun "bir lison" deb biladi. Is'hoqxon Ibrat singari Turkiston ma'rifatparvarlarining yagona orzusi – kelajak avlodning rivojlangan millatlar safida erkin, mustaqil, rohat-farog'at hayot kechirishi edi.

Dastlabki bosqichda bu harakat namoyondalari asosiy diqqatni butun ijtimoiy tizimni yangilashdan ko'ra, ma'naviyat sohasini o'zgartirishga qaratdilar. Islohotchilarning ko'pchilik qismini tashkil qilgan jadidlar yangi usuldagi maktablarni ochish, ro'znomalar nashr qilish, tabiiy fanlarga oid darslik va o'quv qo'llanmalarni chop etish, milliy o'zlikni idrok etishni shakllantirishga zamin hozirladilar.

Turkiston o'lkasida birinchi islohot jamoalari XIX asr oxirida shakllandi. Taraqqiyparvarlarning ko'zga ko'ringan namoyandalari mahalliy ziyolilarning asosini tashkil qilgan Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Toshpo'lat Norbo'tabekov, Abdulla Avloniy, Zaki Validiy To'g'on va Hamza Hakimzoda Niyoziydardir.

Bu harakat yetakchilari Turkiston o'lkasi xalqlarining boshi berk ko'chaga kirib qolganliklaridan og'ir qayg'uga tushdilar. Ular ham chorizm, ham mahalliy hokimiyatparastlarning ikkiyoqlama bosimi ostida qolgan keng xalqning g'oyat qashshoqligi, jahonning iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlaridan nihoyatda ortda qolganligi, madaniy qoloqlik, qarashlardagi bir xillik jadidlarda ijtimoiy rivojlanishni tezlashtirishning amaliy vositalarini qidirish g'oyasini paydo qildi. Shakllangan vaziyatda ilg'or musulmon ziyolilari o'lkaning mustamlaka kishaniga tushishining, yurt qoloqligining muhim sababini xalqning ma'rifiy qoloqligida deb tushundilar. Shu sabab ma'rifatchi jadidlar ta'limni taraqqiyotini birinchi galdagi asosiy masala etib bilishgan. Jadidlar bu ishda nafaqat nazariy holatdan, balki amaliy jihatdan ham ko'p kuch-g'ayrat sarflashdi. Ular yangi usuldagi maktablar, qiroatxonalar ochishdi, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishdi. Ya'ni o'lka hududida yangi usuldagi maktablardan birinchilari

1898 yilda Qo‘qonda Salohiddin domlaning tashabbusi bilan tashkil etilgan. Shu vaqtning o‘zida yana bir jadid maktabi Qirg‘izistondagi To‘qmoqda ham ochilgan. 1899 yilda Shamsiddin domla Andijonda va Mannon qori Toshkentda yangi usul maktablariga asos soldilar.

1900 yildan boshlab Turkiston o‘lkasida yangi usuldagi maktablar soni muntazam ravishda ko‘paya boradi. Shu yili mashhur mutafakkir, pedagog va jurnalist Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘li yangi usuldagi “Namuna” deb atalgan o‘zbek maktabini ochib, o‘zi rahbarlik qilib darslar ham berdi. Bu maktab qisqa vaqt ichida juda mashhur bo‘lib ketdi. Bu maktabning yaxshi tomoni shu qadar yuqori bo‘lgan ediki, bu hol boshqa hududlarda ham shu kabi o‘quv dargohlarining ochilishiga sabab bo‘lib xizmat qildi. 1903 yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy Samarqand atrofidagi Jomboy shahrida o‘z shaxsiy hisobidan maktab tashkil etdi. Hoji Muin va Abduqodir Shakuriy kabi taniqli ma‘rifatparvarlar u bilan birga ta‘lim berdilar.

Islahotchilar faoliyatining yana bir tarmog‘i ma‘rifat g‘oyalarini keng ommaga targ‘ib qilishda ko‘zga tashlandi. Ammo chor senzurasining hukmronligi, ma‘muriy to‘siqlar natijasida bu sohadagi ishlar XX asr boshlarida chegaralangan edi.

Ta‘lim islohoti borasidagi talablar mazmunan dastlabki jadidlar mafkuraviy fikrlarining umumiy tomonini o‘zida mujassam etgan. Ular o‘sha vaqtdayoq Turkiston jamiyatini bir maromda isloh qilish bo‘lg‘usi modelining bir qator asosiy g‘oyalarini o‘z faoliyatlarida aks ettirishgan edi.

Agar dastlabki islohotchilar nazariy qarashlariga tarixiy jihatdan qaralsa, ularning bundan keyingi asosiy mafkurasi asoslarini tashkil qilgan bir qator muhim qoidalarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, ma‘rifatparvarlar xalqni ma‘rifatli qilmasdan, keng ommani Rossiya va jahon madaniyati muvaffaqiyatlaridan bahramand etmasdan, Turkistonning rivojlana olmasligini anglab yetdilar. Ular xalqning ijtimoiy hayotini yaxshilash uchun uni istibdod zanjiri va qiyin majburiyatlardan ozod etish, ma‘naviy hurlikka erishish darkor, deya adolatli qarorga kelishdi. Ma‘rifatchilar asarlarida hukumatning adolatsizlik va poraxo‘rlilik, haddan ortiq ko‘p soliqlar singari nayranglarini ochiq tanqid qilishdi. Islahotchilar tobe Turkistonni mahalliy hokimiyat vakillarining saylov tizimini noto‘g‘ri deb bilishdi, chor hukumatining soliq siyosatiga e‘tiroz bildirishdi.

Taraqqiychilar islom dinida axloqiy o‘rishning asosiy vositasini ko‘rdilar. Ular nazdida islomni isloh etish fan va ilg‘or texnologiya muvaffaqiyatlarini zabt etishda, dastlabki davrdagi islom dini tushunchalari va zamonaviy imkoniyatlarni hisobga olish bilan uzviy aloqadorlikda ko‘rindi.

Dastlabki bosqichda islohotchilik harakatining yetakchilari to‘xtab qolgan diniy ta‘limni inkor etgan holda, yangi usuldagi ta‘lim uchun kurashishdi. Ammo, ularning islomni yaxshilash

mafkurasi o'sib borib, chuqur ma'no va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari bilan uzviy aloqadorlik kasb eta bordi.

Jadidchilik dunyoviy ilmni kuchaytirishga intilib, an'anaviy ta'lim islohoti, yangi usuldagi maktablar va teatr truppalarini yaratish, har bir musulmonning bank va iqtisodiy sarmoya sohasida ishtirok etish imkoniyati ishtirokchilari bo'lgani holda, islomning ba'zi ahamiyatini yo'qotgan tushunchalarini rad etishdi, matematika, geografiya va bir qator boshqa fanlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tan olishdi.

Islohotchilik yetakchi nafosat va ma'naviy-iqtisodiy fikrlarni o'ziga birlashtirdi va insonning qonuniylik asosida ta'minlangan so'z, matbuot, iymon, shaxs daxlsizligi erkinligini qo'llab-quvvatladi.

Shu tarzda islohotchilik paydo bo'lgan davrdan boshlab an'anaviy, islomga qarshi o'laroq, dinni ma'naviy va iqtisodiy rivojlanish vazifalariga moslagan holda uning ba'zi qoloq qoidalarini o'zgartirishga intildi.

Ma'lumki, XX asr birinchi choragi Turkiston ijtimoiy hayotida jadidchilik harakati o'ziga xos mavqega ega bo'lgan. Unga muayyan ma'noda muxolif sanalgan "qadimchilik" ham ijtimoiy zaminiga, faol harakatda bo'lgan kuchlariga ega edi. Jadidchilik harakatining g'oya va fikrlari XX asr 10-yillaridan so'ng "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona", "Buxoroi sharif", "Turon", "Samarqand", "Hurriyat" kabi gazetalarda, "Oyna" jurnalida aks etgan bo'lsa, qadimchilarning qarashlari ma'lum darajada "Al-Isloh", "Al-Izoh" jurnallarida o'z ifodasini topgan, tarzidagi qarashlar mavjud. "Al-Isloh"ga oid bu fikrning haqiqatga qanchalik muvofiqligi haqida uning barcha sonlarini tadqiq etish asosida xulosa chiqarish ilmiy va mantiqiy jihatdan to'g'ri ekani shubhasizdir. Ayni zamonda, mazkur manbani sinchiklab o'rganish jadidlar bilan qadimchilar munosabatining mohiyati nimadan iborat bo'lganini aniqlashga ham muayyan darajada ko'maklashadi. Birinchi jahon urushi, Turkistonda mardikorlikka olish siyosati va unga qarshi mahalliy xalqning ommaviy chiqishlari, fevral va oktabr to'ntarishlari, Turkiston muxtoriyatining yuzaga kelishi va yo'q qilinishi, sho'rolar tuzumining o'rnatilishi va sekin-asta kuch ola borishi, yangicha mustabidlik ko'rinishiga qarshi mahalliy aholining qo'zg'alishi – bular "Al-Isloh" nashr etilgan davrdagi yirik ijtimoiy hodisalar bo'lgan. Jurnalning mana shu turfa hodisalarga nisbatan tutgan pozitsiyasini belgilash ham eng yangi tariximizning mukammalroq yoritilishiga ko'mak beradi. "Mazkur jurnalda milliy uyg'onish davri o'zbek jadidchiligi namoyandalarining turli janrlarga oid asarlari bosilgan. Ularning aksariyati hamon ilmiy jamoatchilik e'tiboridan chetda qolib kelmoqda. Shu bilan birga, jurnal sahifalarida ham bevosita, ham bilvosita axloqiy va estetik fikrlar yuzasidan munozaralar bo'lgan. Bu qarashlarni tadqiq etish va ulardan chiqadigan xulosalarni umumlashtirish axloqshunosligimiz uchun muhim ahamiyatga molikdir. "Al-Isloh"

sahifalarida yangi ijtimoiy voqelik sharoitida diniy arkonlar, aqidalar tahlil va talqin etildi, zarur o'rinlarda ularga isloh kiritish yuzasidan takliflar bildirildi. Natijada, mazkur nashrning diniy-ma'rifiy qarashlar rivojida ham muayyan ahamiyatga molik bo'lgani shubhasizdir. Bu jarayonni kuzatish ruhiy tafakkurimizning tadrijini aniqlashga ko'maklashadi. Ayni paytda, jurnalning davriy nashr sifatida o'rganilishi uning jurnalistikamiz tarixidagi o'rni va ahamiyatini belgilashda ham muhim ilmiy qiymatga ega. "Al-Isloh"da chop etilgan adabiy, ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi materiallar bugungi kunga qadar maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan emas"[3]. Jurnalda o'z davrining dolzarb mavzulari yuzasidan tahliliy maqolalar, bahs-munozara materiallari chop qilingan. Shunday bo'lsa-da, bu davrga oid yirik tadqiqotlarning birontasida jurnal faoliyatiga keng to'xtalinmagan. Unga murojaat qilingan kamdan-kam hollarda esa, sho'ro mafkurasi nuqtai nazaridan talqin etilgan. Ushbu tadqiqotlarda "Al-Isloh" jurnalini maxsus o'rganish vazifasi qo'yilmaganidan, uning faoliyatiga umumiy tarzdagina baho berilgan.

Milliy ziyolilarning g'oyaviy va ijtimoiy-amaliy ishidagi siyosiy qaratilganlikning o'sib borishi islohotchilarning toza madaniy-ma'rifiy faoliyat tarafdorlari va ijtimoiy-siyosiy institutlarni yangilash, qolaversa, istibdod zulmidan ozod bo'lish tarafdorlariga bo'linishlari uchun vaziyat paydo bo'ldi.

1917 yil fevral inqilobining boshlarida Turkistonlik islohotchilarning qat'iy choralar qilish tarafdorlari bo'lgan vakillari keng siyosiy talablarni ilgari sura boshladi. Bu talablar ichida o'lkani boshqarishni to'liq yangilashda mahalliy aholi huquqlarini oshirishga ahamiyat berish va ularning vakillariga Davlat Dumasidan kerakli o'rin berish, milliy matbuot erkinligi, yakka hokimlikni o'zgartirishdan iborat edi. Shu qatorda, biron-bir hujjatda ushbu talablar yig'ilgan shaklda rasman bayon qilinmadi. Aniq siyosiy dastur ommaga oshkora bayon qilinmay qoldi.

Inqilobiy tub burilishlar jarayonida islohotchilar mahalliy aholining ijtimoiy barcha qatlamlarini orqasidan ergashtira oldi, ular dunyoqarashida musulmonlar yakdilligini mustahkamlash g'oyasini uyg'otishga erishdilar.

XIX asr so'ngi va XX asr dastlabki davrida shakllanib, ijtimoiy hayotning hamma tomonlarini o'z ichiga olgan jadidchilik harakati Rusiya musulmonlari, xususan Kavkaz va Volga bo'yi taraqqiyparvarlik harakatining bevosita ta'siri ostida yuzaga keldi. Bundan tashqari, XIX asr oxirida Sharq davlatlarida keng tarqalgan diniy islohotchilik, istibdodga qarshi milliy-ozodlik kurashi borasidagi qarashlarning ham ta'siri sezilarli bo'ldi. Shu sababli jadidlar faoliyatida ma'lum ma'noda islom islohotchiligi g'oyalariga tayanib, islom qarashlarini zamona ijtimoiy talablari zahirida yangicha bayon qilish hamda maorif, madaniyat va matbuot sohasini ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga qaratish zaruriy o'rin tutadi.

Islahotchilar amaliy hujjatlar, dasturiy harakatlar strategiyasi va usullarini faol ishlab chiqa boshladilar. Shu yo'sinda, alohida urg'u berish kerakki, islohotchilik harakatida hali 1914-1915 yillardanoq yuzaga kelgan bo'linish fevral inqilobidan keyin sezilarli o'sdi va 1917 yil oktabr oylariga kelib aniq shaklga ega bo'ldi. Xalqlarning madaniy va milliy o'zligini shakllantirish, ma'rifatparvarlarning xalq ommasini ma'rifatli qilish va ularni milliy umumdemokratik manfaatlar uchun kurashishga chorlashga qaratilgan faoliyat bilan uzviy bog'liq edi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy muhit Abdurahmon Toshkandiy dunyoqarashi hamda ilmiy-ma'rifiy faoliyatining shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan . Jadidchilik harakati, ma'rifatparvarlik g'oyalari, yangi usul ta'limi va matbuot rivoji mutafakkir qarashlarining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Abdurahmon Toshkandiy o'z asarlarida ilm-ma'rifat, axloqiy kamolot, milliy uyg'onish va jamiyat taraqqiyoti masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Uning qarashlarida xalq taraqqiyotining asosiy omili sifatida ta'lim, ma'naviyat va ijtimoiy ongning rivojlanishi talqin etiladi. Shuningdek, mutafakkirning "Al-Isloh" jurnalidagi faoliyati Turkiston jadid matbuoti hamda islohotchilik g'oyalarining rivojida muhim o'rin egallaganligi aniqlandi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мўминов И.М. Ўзбекистонда XIX аср охирида XX аср бошларида ижтимоий-фалсафий тафаккурнинг ривожланиш тарихидан. Танланган асарлар . Биринчи том . – Тошкент : 1969.
2. Karimov O. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti: savol-javoblar. O'quv-uslubiy qo'llanma. "Namangan" nashriyoti, 2017.
3. Abrorxon Asatulloevich Asatulloev (2021). Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning al-isloh jurnalida ilgari surgan axloqiy fikrlari ("Me'yor ul-axloq" (axloq me'yorlari) asari tasnifida). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (2), – B.141.
4. Худойкулов Мухтор. Ўзбек ҳажвий публицистикаси шаклланиш ва ривожланиш тамойиллари. Т.: Университет, 1995. - Б. 45.
5. Ibrohim Davron – shoir (1874-1922 ).
6. Туркистон вилоятининг газети . – № 56. -Б. 3.
7. Вақт. 1913. –№ 1324.
8. Abrorxon Asatulloevich Asatulloev (2021). Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning al-isloh jurnalida ilgari surgan axloqiy fikrlari ("Me'yor ul-axloq" (axloq

me'yorlari) asari tasnifida). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (2), – B.141.